



INNOVATSION IQTISODIYOT

Ilmiy-amaliy elektron jurnal

2026

No 1

ИННОВАЦИОННАЯ ЭКОНОМИКА

Научно-практический электронный журнал

INNOVATIVE ECONOMY

Scientific and practical electronic journal



Indexlanadigan bazalar:  Google Scholar  Crossref  OpenAIRE  CYBERLENIKA



INNOVATION IQTISODIYOT

ILMIY-AMALIY
ELEKTRON JURNAL

**1-jild
1-son
yanvar, 2026**

**January, 2026
Volume 1
Number 1**

**ИННОВАЦИОННАЯ
ЭКОНОМИКА
Научно-практический
электронный журнал**

**INNOVATIVE ECONOMY
Electronic scientific and
practical journal**



INNOVATSION IQTISODIYOT

ILMIY-AMALIY ELEKTRON JURNAL

ISSN: 3030-315X

ojs.kstu.uz

Muassis:

Qarshi davlat texnika universiteti

Tahririyat Kengashi raisi:

R.X.Ergashev, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Tahririyat Kengashi raisi o‘rinbosari:

S.N.Xamrayeva, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Mas’ul muharrir:

N.A.Ochilova, PhD, dotsent

Texnik muharrir:

S.J.Qulmurotov

Jurnal har oyda bir marotaba elektron shaklda jurnalning rasmiy sayti orqali nashr etiladi.

Tahririyat manzili:

180100, Qarshi shahri, Mustaqillik ko‘chasi 225-uy Tel.:

+998 (75) 221 09 23

+998 (93) 902 72 63

Faks: +998 (75) 221 1395

innoeconomic@kstu.uz

“Innovatsion iqtisodiyot” ilmiy - amaliy elektron jurnali O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi **Oliy attestatsiya komissiyasi rayosatining 2025-yil 5-apreldagi 369-sonli qarori** bilan milliy ilmiy nashrlar ro‘yxatiga kiritilgan.

Jurnalda quyidagi ruknlar asosida maqolalar nashr etiladi:

1. Nazariya va metodologiya
2. Raqamli iqtisodiyot
3. Mintaqa va tarmoqlar iqtisodiyoti
4. Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik
5. Inson kapitali iqtisodiyoti
6. Menejment va marketing
7. Buxgalteriya hisobi, iqtisodiy tahlil va audit
8. Moliya, kredit va investitsiya
9. Ekonometrika va statistika
10. Xizmat ko‘rsatish va turizm sohasi

TAHRIRIYAT KENGASHI:

Tahririyat Kengashining xalqaro a'zolari:

Ovchinnikov Viktor Nikolayevich - i.f.d., professor, akademik (Janubiy Federal Universitet, Rossiya)

Solodovnikov Sergiy Yurevich - i.f.d., professor (Belorussiya milliy texnika universiteti)

Sidorov Viktor Aleksandrovich - i.f.d., professor, (Kuban davlat universiteti)

Shevchenko Igor Viktorovich - i.f.d., professor (Kuban davlat universiteti, Rossiya)

Kusainov Xalel Xaymullievich - i.f.d., professor, akademik (Qozog‘iston Respublikasi Milliy fanlar akademiyasi)

Samandarzoda Iskandar Hakim - Iqtisodiyot fanlari doktori (Sh.Shotemur nomidagi Tojikiston agrar universiteti)

Gibadullin Artur Arturovich - i.f.n. dotsent (Milliy tadqiqot universiteti, Moskva energetika instituti, Rossiya)

Sergey Aleksandrovich Voynash - ilmiy xodim (P.Lumumbi nomidagi Rossiya xalqlar do‘stligi universiteti)

Valentina Nikolayevna Pulyayeva - iqtisod fanlari nomzodi, dotsent (Rossiya Federatsiyasi hukumati qoshidagi Moliya universiteti)

Dmitriy Evgenievich Morkovkin, iqtisod fanlari nomzodi, dotsent (Moliya universiteti, Rossiya Federatsiyasi hukumati)

Sadriddinov Manuchehr Islomiddinovich - i.f.d., professor, (Tojikiston Respublikasi Milliy fanlar Akademiyasi)

Perskaya Viktoriya Vadimovna - i.f.d., professor, (Rossiya Federatsiyasi hukumati huzuridagi Moliya universiteti)

Molchanov Igor Nikolayevich - i.f.d., professor, (Lomonosov nomidagi Moskva davlat universiteti)

Basova Mariya Mixaylovna - i.f.d., professor, (Rossiya Federatsiyasi hukumati huzuridagi Moliya universiteti)

Aleksandr Leonidovich Chupin, iqtisod fanlari nomzodi (P.Lumumbi nomidagi Rossiya xalqlar do‘stligi universiteti)

Nezamaykin Valeriy Nikolayevich - i.f.d., professor, (Rossiya davlat gumanitar universiteti)

Nikonorova Alla Vladimirovna - i.f.n., dotsent, (Rossiya Federatsiyasi hukumati huzuridagi Moliya universiteti)

Dmitriyeva Olga Aleksandrovna - i.f.n., dotsent, (Rossiya Federatsiyasi hukumati huzuridagi Moliya universiteti)

Shvets Yuriy Yuryevich - i.f.n., dotsent, (Rossiya Fanlar akademiyasining Nazorat fanlari instituti)

Kolosova Yelena Valeryevna - i.f.n., dotsent, (Plexanov nomidagi Rossiya iqtisodiyot universiteti)

Tahririyat Kengashi a'zolari:

Gulyamov Saidaxror Saidaxmedovich - i.f.d., professor, akademik

Pardayev Mamayunus Qarshiboyevich - i.f.d., professor

Navruz-zoda Baxtiyor Negmatovich - i.f.d., professor

Xatamov Ochildi Qurbonovich - i.f.d., professor

Fayziyeva Shirin Shodmonovna - i.f.n., professor

Jumayeva Gulrux Jo‘raqulovna - i.f.n., professor

Egamberdiyeva Salima Raimovna - i.f.n., dotsent

Erkayeva Gulbahor Panjiyevna - i.f.n., professor

Yakubova Shamshinur Shuxratovna - i.f.d., (DSc) dotsent

Amirqulov Shuhrat Olimovich - i.f.f.d., (PhD), dotsent

Samiyeva Gulnoza Toxirovna - i.f.f.d., (PhD), dotsent

Aliqulov Azamat Tuyg‘unovich - i.f.f.d., (PhD), dotsent

Aminov Fazlitdin Baxadirovich - i.f.n., dotsent

Xo‘jaqulova Nigora Rustamovna - i.f.f.d., (PhD), dotsent

Turobov Sherzod Alisherovich - i.f.f.d., (PhD), dotsent

Alimova Munisa Yulchiyevna - i.f.f.d. (PhD) dotsent

Ergasheva Nasiba Raxmatullayevna - i.f.d., (DSc), dotsent

Boboqulov Sanjar Baxromkulovich - i.f.f.d., (PhD), dotsent

Djalilov Raxmonkul Hamidovich - i.f.f.d., (PhD), dotsent

Nomazov Baxrom Bobomurodovich - i.f.f.d. (PhD) dotsent

Alimxanova Nigora Alimxanovna - i.f.f.d. (PhD) dotsent

Jonuzokov Mirzabek Kulmamatovich - i.f.f.d. (PhD), dotsent

Muxammadiyeva Yulduz Yusupovna - i.f.f.d. (PhD)

Tursunova Aziza Xoshimovna - i.f.f.d. (PhD)

Xolliyev Sherali Baxtiyorovich - i.f.f.d. (PhD)



ИННОВАЦИОННАЯ ЭКОНОМИКА

Научно-практический электронный журнал

ISSN: 3030-315X

ojs.kstu.uz

Учредитель:

Каршинский государственный технический университет

Председатель редакционного совета:

Р.Х.Эргашев, доктор экономических наук, профессор

Заместитель председателя редакционного совета:

С.Н.Хамраева, доктор экономических наук, профессор

Ответственный редактор:

Н.А.Очилова, PhD, доцент

Технический редактор:

С.Ж.Кулмуротов

Журнал издается один раз в месяц в электронной форме и публикуется через официальный сайт журнала.

Адрес редакции:

180100, г. Карши, ул. Мустакиллик, дом 225

Тел: +998 (75) 221 09 23

+998 (93) 902 72 63

Факс: +998 (75) 221 1395

E-mail: innoeconomic@kstu.uz

Научно-практический электронный журнал «Инновационная экономика» включён в перечень национальных научных изданий на основании решения Президиума Высшей аттестационной комиссии при Министерстве высшего образования, науки и инноваций Республики Узбекистан от 5 апреля 2025 года № 369.

В журнале публикуются статьи по следующим рубрикам:

1. Теория и методология
2. Цифровая экономика
3. Экономика регионов и отраслей
4. Малый бизнес и частное предпринимательство
5. Экономика человеческого капитала
6. Менеджмент и маркетинг
7. Бухгалтерский учет, экономический анализ и аудит
8. Финансы, кредит и инвестиции
9. Эконометрика и статистика
10. Сфера услуг и туризм

Редакционная коллегия:

Международные члены Совета редколлегии:

Овчинников Виктор Николаевич - д.э.н., профессор, академик (Южный федеральный университет, Россия)

Солодовников Сергей Юрьевич - д.э.н., профессор (Белорусский национальный технический университет)

Виктор Александрович Сидоров - д.э.н., профессор, (Кубанский государственный университет)

Шевченко Игорь Викторович - д.э.н., профессор (Кубанский государственный университет)

Кусаинов Халел Хаймуллович - д.э.н., профессор, академик (НААН Республика Казахстан)

Самандарзода Искандар Хаким - д.э.н., профессор (Таджикистанский аграрный университет им. Ш. Шотемура)

Гибатуллин Артур Артурович - к.э.н., доцент (Национальный исследовательский университет «Московский энергетический институт»)

Войнаш Сергей Александрович - научный сотрудник (Российского университета дружбы народов имени П.Лумумби)

Пуляева Валентина Николаевна - к.э.н., доцент (Финансовый университет при Правительстве РФ)

Морковкин Дмитрий Евгеньевич - к.э.н., доцент (Финансовый университет Правительство РФ)

Садриддинов Манучехр Исламиддинович - д.э.н., профессор (Национальная академия наук Республики Таджикистан)

Перская Виктория Вадимовна - д.э.н., профессор (Финансовый университет при Правительстве РФ)

Молчанов Игорь Николаевич - д.э.н., профессор (Московский государственный университет имени М.В. Ломоносова)

Басова Мария Михайловна - д.э.н., профессор (Финансового университета Российской Федерации)

Чупин Александр Леонидович - к.э.н. (Российского университета дружбы народов имени П. Лумумби)

Незаймакин Валерий Николаевич - д.э.н., профессор (РГТУ)

Никонорова Алла Владимировна - к.э.н., доцент (Финансового университета Российской Федерации)

Дмитриева Ольга Александровна - к.э.н., доцент (Финансового университета Российской Федерации)

Швец Юрий Юрьевич - к.э.н., доцент (Институт проблем управления РАН)

Колосова Елена Валерьевна - к.э.н., доцент (Российский экономический университет имени Г.В. Плеханова)

Члены Совета редколлегии:

Гулямов Саидхорр Саидхмедович - д.э.н., профессор, академик

Пардаев Мамаюнус Каршибоевич - д.э.н., профессор

Навруз-зода Бахтиёр Негматович - д.э.н., профессор

Хатамов Очилди Курбанович - д.э.н., профессор

Файзиева Ширин Шодмоновна - к.э.н., профессор

Жумаева Гулрух Журакуловна - к.э.н., профессор

Эгамбердиева Салима Раимовна - к.э.н., доцент

Еркаева Гулбахор Панжиевна - к.э.н., профессор

Якубова Шамина Шухратовна - д.э.н., (DCs), доцент

Амиркулов Шухрат Олимович - д.ф.э.н., (PhD), доцент

Самиева Гулноза Тохировна - д.ф.э.наук., (PhD), доцент

Алигулов Азамат Туйгунович - д.ф.э.н., (PhD), доцент

Аминов Фазлитдин Бахадирович - к.э.н., доцент

Хужакулова Нигора Рустамовна - д.ф.э.н., (PhD), доцент

Туробов Шерзод Алишерович - д.ф.э.н., (PhD), доцент

Алимова Муниса Юльчиевна - д.ф.э.н., (PhD), доцент

Эрашьева Насиба Рахматуллаевна - д.э.н., (DCs), доцент

Бобоккулов Санжар Бахромкулович - д.ф.э.н., (PhD), доцент

Джалилов Рахмонкул Хамидович - д.ф.э., (PhD), доцент

Номазов Бахром Бобомуродович - д.ф.э.н., (PhD), доцент

Алимханова Нигора Алимхановна - д.ф.э.н., (PhD), доцент

Джанузакوف Мирзабек Кулмаматович - д.ф.э.н., (PhD), доцент

Мухаммадиева Юлдуз Юсуповна - д.ф.э.н., (PhD)

Турсунова Азиза Хошимовна - д.ф.э.н., (PhD)

Холлиев Шерали Бахтиёрович - д.ф.э.н., (PhD)



Mintaqa va tarmoqlar iqtisodiyoti
Economy of the region and industry
Экономика региона и отрасли



UDK: 338.24:334.012.64

<https://doi.org/10.70769/3030-315X.II.1.1.2026.12>

MINTAQALARNING BARQAROR IQTISODIY RIVOJLANISHIDA KICHIK BIZNES VA XUSUSIY TADBIRKORLIKNING O‘RNI

*Xujakulova Nigora Rustamovna
Mirzayev Javoxir To‘lqinovich*

РОЛЬ МАЛОГО БИЗНЕСА И ЧАСТНОГО ПРЕДПРИНИМАТЕЛЬСТВА В УСТОЙЧИВОМ ЭКОНОМИЧЕСКОМ РАЗВИТИИ РЕГИОНОВ

*Хужакулова Нигора Рустамовна
Мирзаев Джавохир Тулкинович*

THE ROLE OF SMALL BUSINESS AND PRIVATE ENTREPRENEURSHIP IN THE SUSTAINABLE ECONOMIC DEVELOPMENT OF REGIONS

*Khujakulova Nigora
Mirzayev Javokhir*

Received: January 12, 2026 Revised: January 16, 2026 Accepted: January 21, 2026 Published: February 1, 2026

Annotatsiya. Mazkur maqolada mintaqalarning barqaror iqtisodiy rivojlanishini ta’minlashda kichik biznes va xususiy tadbirkorlikning o‘rni va ahamiyati ilmiy-nazariy hamda amaliy jihatdan yoritib berilgan. Kichik biznes subyektlarining hududiy iqtisodiyotga ta’siri, bandlikni oshirish, aholi daromadlarini ko‘paytirish, ishlab chiqarishni diversifikatsiyalash va innovatsion faollikni rag‘batlantirishdagi roli tahlil qilingan. Shuningdek, mintaqalarda kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni rivojlantirishga ta’sir etuvchi institutsional, moliyaviy va infratuzilmaviy omillar o‘rganilgan. Mintaqalarda kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni qo‘llab-quvvatlash mexanizmlarini takomillashtirish bo‘yicha ilmiy-amaliy taklif va tavsiyalar ishlab chiqilgan.

Kalit so‘zlar: kichik biznes, tadbirkorlik, innovatsiya, iqtisodiy rivojlanish, raqobat, ishlab chiqarish, samaradorlik, aholi bandligi.

Аннотация. В данной статье рассматривается роль и значение малого бизнеса и частного предпринимательства в обеспечении устойчивого экономического развития регионов с научной, теоретической и практической точек зрения. Анализируется влияние малых предприятий на региональную экономику, их роль в увеличении занятости, повышении доходов, диверсификации производства и стимулировании инновационной деятельности. Также изучаются институциональные, финансовые и инфраструктурные факторы, влияющие на развитие малого бизнеса и частного предпринимательства в регионах. Разработаны научные и практические предложения и рекомендации по совершенствованию механизмов поддержки малого бизнеса и частного предпринимательства в регионах.

Ключевые слова: малый бизнес, предпринимательство, инновации, экономическое развитие, конкуренция, производство, эффективность, занятость населения.

Abstract. This article discusses the role and importance of small business and private entrepreneurship in ensuring sustainable economic development of regions from a scientific, theoretical and practical perspective. The impact of small business entities on the regional economy, their role in increasing employment, increasing incomes, diversifying production and stimulating innovative activity are analyzed. Institutional, financial and infrastructural factors affecting the development of small business and private entrepreneurship in the regions are also studied. Scientific and practical proposals and recommendations are developed to improve mechanisms for supporting small business and private entrepreneurship in the regions.



Keywords: small business, entrepreneurship, innovation, economic development, competition, production, efficiency, employment.

■ KIRISH

Bugungi globallashuv va raqobatning kuchayishi sharoitida mintaqaviy iqtisodiy o'sishni ta'minlash har bir davlat uchun ustuvor vazifa hisoblanadi. Xususan, kichik biznes va xususiy tadbirkorlik iqtisodiyotni diversifikatsiya qilish, bandlikni oshirish va mintaqalar o'rtasidagi ijtimoiy-iqtisodiy tengsizlikni kamaytirishda muhim rol o'ynaydi.

Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik mintaqaviy iqtisodiyotning asosi sifatida mahalliy resurslardan samarali foydalanishga, yangi ish o'rinlarini yaratishga va daromadlarni oshirishga yordam beradi. Yirik korxonalar bilan solishtirganda, kichik biznes bozor talablariga tez moslashishi, innovatsion g'oyalarni tezkor amalga oshirishi va kapital qo'yilmalarning kamligi bilan ajralib turadi. Bu mintaqalarda iqtisodiy faollikni oshirish va barqaror o'sishni ta'minlashda muhim omil hisoblanadi.

Bundan tashqari, kichik biznes va xususiy tadbirkorlik hududlarda raqobat muhitini yaratish, mahalliy bozorni yuqori sifatli va arzon mahsulotlar bilan to'ldirish va xizmat ko'rsatish sohasini rivojlantirish orqali turmush darajasini yaxshilaydi. Ayniqsa, qishloq joylarda kichik biznesni rivojlantirish migratsiyani kamaytirish va kompleks mintaqaviy rivojlanishni rag'batlantirish uchun zamin yaratadi.

■ ADABIYOTLAR TAHLILI

Ko'plab xorijiy va mahalliy iqtisodchi olimlar kichik biznes va xususiy tadbirkorlikning mazmun mohiyati, uni rivojlantirishga ta'sir etuvchi omillar, kichik biznes subyektlarining iqtisodiyotdagi o'rnini hamda ahamiyati to'g'risida ilmiy tadqiqotlar olib borilgan. Jumladan, V.Dolyaning "Ensiklopediya biznesmena" lug'atida «Tadbirkor degani yangi bir ishga qo'l urish, uni bajarishga kirishish, qandaydir kattaroq ishlarni amalga oshirishdir»-deb ta'rif berilgan bo'lsa, R.Xizrich va M.Piterslar "Tadbirkor, ya'ni o'ylab ish ko'ruvchi kishi - korxona ishini yurgizishga moyil, qobiliyatli, katta hajmdagi ishlarga qo'l ura oladigan, jasur, cho'rtkesar va bunday ishlarga botir bo'lgan kishidir"-deb ataganlar. Rossiyalik olimlardan A.G.Aganbegyan iqtisodiyotda kichik biznes subyektlarining iqtisodiyotda mahsulotlar ishlab chiqaruvchi, boylik yaratuvchi va xizmat ko'rsatish sohaslarini o'z ichiga oladigan soha ekanligi ammo, unga moliya-kredit, birja faoliyati kirmasligini ta'kidlagan bo'lsa, A.Komov o'zining "Русское экономическое общество" jurnalida bergan ilmiy maqolasida kichik biznes subyektlarini iqtisodiyotning yirik tarkibiy qismi ekanligi va uning rivojlanishida kredit tizimining ahamiyati to'g'risida fikr yuritgan. Umuman olganda, kishining tadbirkorlik holati - bu tashabbuskorligi, novatorligi, manfaatdorligi, ishga eskicha emas, yangicha yondashishdir [1].

Kichik biznes odatda ishchilar soni, ishlab chiqarish hajmi va aylanma mablag'lar bilan belgilanadi. Xalqaro miqyosda kichik biznes 10 dan 50 gacha ishchiga ega bo'lgan korxonalar sifatida belgilanadi, garchi bu mezon mamlakatning iqtisodiy rivojlanish

darajasiga qarab o'zgaradi. Mashhur iqtisodchilar J.Shumpeter, M.Porter va P.Drucker tadbirkorlikni iqtisodiy o'sishning muhim omili deb hisoblashgan. Shumpeterning so'zlariga ko'ra, tadbirkorlikning asosiy maqsadi innovatsiyalarni joriy etish va iqtisodiy tizimni yangilashdir [3].

■ TADQIQOT METODOLOGIYASI

Mazkur maqolada mintaqalarda kichik biznes va xususiy tadbirkorlik holati va dinamikasi o'rganildi va tahlil qilindi. Tadqiqot jarayonida fanning dialektika, iqtisodiy tahlil qilish, qiyosiy taqqoslash, statistik guruhlash, monografik kuzatish, induksiya, deduksiya, mantiqiy va abstrakt fikrlash hamda istiqbolli bashoratlash usullaridan keng foydalanildi.

■ TAHLIL VA NATIJALAR

Kichik biznes va xususiy tadbirkorlikning iqtisodiy mohiyati bir qancha omillarda namoyon bo'ladi. Mulk munosabatlari nuqtai nazaridan, kichik biznes asosan xususiy mulkchilikka asoslangan. Bu mulkdorning natijaga bevosita qiziqishini oshiradi va ishlab chiqarish samaradorligini oshiradi. Bundan tashqari, kichik tadbirkorlar mustaqil ravishda qarorlar qabul qiladilar, bozor talabiga tezda moslashadilar va resurslardan oqilona foydalanadilar. Bandlik nuqtai nazaridan, kichik biznes, ayniqsa, mintaqalarda yangi ish o'rinlarini yaratishda, bandlikning asosiy manbai hisoblanadi. Ko'p sonli kichik biznesning bozorga kirishi sog'lom raqobatni kuchaytiradi, narxlarini barqarorlashtiradi va mahsulot sifatini yaxshilaydi. Bundan tashqari, kichik biznes o'zgaruvchan bozor sharoitlariga tezda moslashishi va arzon narxlarda o'z yo'nalishlarini o'zgartirishi mumkin. Innovatsiyalarni kuchaytirish orqali kichik biznes yangi g'oyalar va texnologiyalarni tezda amalga oshirish imkoniyatiga ega bo'ladi, iqtisodiyotda innovatsion rivojlanishni rag'batlantiradi. Kichik biznes hududlarning iqtisodiy salohiyatini oshiradi, mahalliy xom ashyoni qayta ishlashni osonlashtiradi va ichki bozorni rivojlantiradi. Kichik biznes tushunchasi bozor infratuzilmasida muhim bo'g'in bo'lib, mintaqaviy resurslardan oqilona foydalanish imkonini beradi. Kam kapital qo'yilmalarni talab qiladigan va tezkor qarorlar qabul qiladigan bu sub'ektlar mintaqaviy rivojlanishda muhim rol o'ynaydi [4].

Kichik biznes milliy iqtisodiyotning dinamik rivojlanishida muhim rol o'ynaydi. Birinchidan, ular ishlab chiqarilgan tovarlar va xizmatlar hajmini kengaytirish orqali yalpi ichki mahsulotning o'sishini ta'minlaydi. Ikkinchidan, ular bozor iqtisodiyotida raqobatni kuchaytirish va monopoliyalarni cheklashda muhim rol o'ynaydi. Uchinchidan, kichik biznes tomonidan to'lanadigan soliqlar davlat byudjeti daromadlarini oshiradi va moliyaviy barqarorlikni ta'minlaydi. Kichik biznes yangi ish o'rinlarini yaratishning eng samarali vositasi hisoblanadi [1]. O'zbekistonda ishlaydigan aholining taxminan uchdan ikki qismi xususiy tadbirkorlikda band. Bu nafaqat ishsizlikni kamaytiradi, balki ijtimoiy barqarorlikni mustahkamlaydi va turmush darajasini yaxshilaydi.



Kichik biznesning moslashuvchanligi ularga yangi texnologiyalarni tezroq qo'llash imkonini beradi. Qo'shma Shtatlardagi Silikon vodiysi bunga yaqqol misol bo'la oladi. Ko'pgina startaplar dastlab kichik biznes sifatida boshlangan va keyinchalik yirik global kompaniyalarga aylangan. Kichik biznes mintaqaviy iqtisodiy faoliyatni rag'batlantiradi. Ularning mahalliy xom ashyodan foydalanish, mintaqalar o'rtasidagi iqtisodiy tengsizlikni kamaytirish va mintaqaviy sanoatni diversifikatsiya qilishdagi roli bebahodir. Kichik biznes rivojlangan mamlakatlarda iqtisodiy barqarorlik va innovatsion rivojlanishning asosidir. Qo'shma Shtatlarda kichik biznes yalpi ichki mahsulotning 50 foizini va bandlikning 52 foizini tashkil qiladi. Yaponiyada ishlab chiqarishning 60 foizi kichik biznesga to'g'ri keladi.

So'nggi yillarda kompleks mintaqaviy rivojlanish masalasi iqtisodiy siyosatning muhim sohasiga aylandi. Bu jarayonda kichik biznes va xususiy tadbirkorlik mintaqaviy iqtisodiyotning moslashuvchan va barqaror segmenti sifatida faoliyat yuritadi [6].

So'nggi davrda O'zbekistonda kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni qo'llab-quvvatlashga qaratilgan keng ko'lamli institutsional va iqtisodiy islohotlar amalga oshirildi. Jumladan, imtiyozli kreditlash mexanizmlarini kengaytirish, soliq engilliklarini joriy etish, davlat dasturlari doirasida moliyaviy va tashkiliy qo'llab-quvvatlash choralari kuchaytirish hamda infratuzilmani rivojlantirish orqali hududlarda tadbirkorlik muhitini yaxshilashga alohida e'tibor qaratildi. Natijada kichik biznes subyektlarining mintaqaviy yalpi ichki mahsulotdagi ulushining barqaror oshib borishi mazkur sohaning hududiy iqtisodiy o'sishni ta'minlashdagi muhim ahamiyatini tasdiqlaydi.

Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik Qashqadaryo viloyatida mintaqaviy iqtisodiyotning asosiy tarmoqlari hisoblanadi. Mintaqaviy iqtisodiyotning tarmoqlararo tuzilmasida kichik biznes sanoat, qishloq xo'jaligi, savdo va xizmat ko'rsatish sohalarida keng rivojlangan bo'lib, mintaqaviy yalpi mahsulotning katta qismini tashkil qiladi [7]. Xususan, kichik sanoat zonalarining yaratilishi mintaqada ishlab chiqarishni ko'paytirishga va eksport salohiyatini mustahkamlashga yordam beradi.

Statistika ma'lumotlariga ko'ra, 2023-yilda Qashqadaryo viloyati yalpi hududiy mahsulotida kichik biznes va xususiy tadbirkorlikning ulushi taxminan 55-57 foizga etdi. Bu ko'rsatkich kichik biznes mintaqaviy iqtisodiyotda etakchi o'rinni egallashini tasdiqlaydi.

Kichik biznes ham bandlik tuzilmasida muhim rol o'ynaydi, mintaqaning ish bilan band aholisining taxminan 70 foizi ushbu sohada band. Kichik biznesning investitsiya jarayonlaridagi ulushining ortishi mintaqaviy iqtisodiy faollikni mustahkamlaydi.

■ XULOSA VA TAKLIFLAR

Kichik biznes va xususiy tadbirkorlikning mintaqaviy iqtisodiy o'sishni ta'minlash, bandlik va farovonlikni oshirish, barqaror va muvozanatli iqtisodiy rivojlanishga erishishdagi roli beqiyos ekanligini ta'kidlash kerak.

Kichik biznes turli makroiqtisodiy sharoitlarga va bozor iqtisodiyotiga xos talablarga moslashish qobiliyati tufayli juda muhim ahamiyatga ega. Iqtisodiyotning turli

sohalarida kichik biznes va xususiy tadbirkorlikning rivojlanishi milliy iqtisodiyotimiz barqarorligini ta'minlashda asosiy makroiqtisodiy omil hisoblanadi. Bu so'nggi yillarda kichik biznesning rivojlanishi natijasida ularning mamlakat yalpi ichki mahsulotidagi ulushi oshgani bilan izohlanadi. Mamlakatning iqtisodiy rivojlanish dasturida iqtisodiy o'sishni ta'minlash, yangi ish o'rinlari yaratish, bandlik muammolarini hal qilish, daromad va farovonlikni oshirishda tobora muhim rol o'ynaydigan kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni jadal rivojlantirish, rag'batlantirish va qo'llab-quvvatlashga alohida e'tibor qaratilgan.

Hududlarda kichik biznes va xususiy tadbirkorlikning rivojlanish jarayoni ko'p qirrali va murakkab bo'lib, unga iqtisodiy muhit, me'yoriy-huquqiy baza, moliyaviy resurslardan foydalanish imkoniyatlari, madaniy va ijtimoiy munosabatlar, shuningdek, texnologik taraqqiyot darajasi kabi omillar bevosita ta'sir ko'rsatadi. Mazkur omillarning o'zaro uyg'unligi hududiy tadbirkorlik muhitining shakllanishi va barqaror rivojlanishini belgilab beradi.

Ushbu xususiyatlarni chuqur tahlil qilish davlat boshqaruvi organlari, moliya institutlari hamda tadbirkorlik subyektlari o'rtasida samarali hamkorlikni yo'lga qo'yish imkonini yaratadi. Xususan, institutsional muhitni takomillashtirish, moliyaviy qo'llab-quvvatlash mexanizmlarini kengaytirish va innovatsion faoliyatni rag'batlantirish orqali kichik biznes subyektlari uchun qulay va raqobatbardosh iqtisodiy sharoitlarni shakllantirish mumkin.

Xulosa qilib aytganda, kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni qo'llab-quvvatlash faqat alohida xo'jalik yurituvchi subyektlarning rivojlanishini ta'minlash bilan cheklanmaydi, balki hududiy iqtisodiyotning moslashuvchanligi, barqarorligi va innovatsion salohiyatini oshirishga qaratilgan kompleks tizimni shakllantirishni nazarda tutadi. Strategik yo'naltirilgan davlat siyosati va jamoatchilik ishtirokining kuchaytirilishi natijasida hududlarda kichik biznes muvaffaqiyatiga asoslangan uzoq muddatli ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyot uchun mustahkam poydevor yaratiladi.

Muallif (lar) haqida / Сведения об авторе / Author details

1. Xujakulova Nigora Rustamovna, TIQXMMI Milliy tadqiqot universiteti doktranti, Qarshi davlat texnika universiteti, Innovatsion iqtisodiyot kafedrası dotsenti. / Хужакулова Нигора Рустамовна, Докторант Национального исследовательского университета TIQXMMI, Доцент кафедры инновационной экономики Каршинского государственного технического университета. / Khujakulova Nigora, Doctoral student at the National Research University of TIQXMMI, Associate Professor, Department of Innovative Economics, Karshi State Technical University.
e-mail: nigorakhujakulova86@gmail.com
ORCID: 0009-0001-2936-1972

2. Mirzayev Javohir To'liqinovich, Qarshi davlat texnika universiteti, Iqtisodiyot va boshqaruv fakulteti magistranti. / Мирзаев Жавахир Тулкинович,



магистрант Каршинского государственного технического университета, факультета экономики и управления. / Mirzayev Javokhir, master's student of Karshi State Technical University, Faculty of Economics and Management.

e-mail: javohirmirzayev067@gmail.com

0009-0005-4465-4844

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. L.M.Kattaboyev "Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik samaradorligining iqtisodiy – ijtimoiy ko'rsatkichlari" Oriental Renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences (E)ISSN: 2181-1784 4(11), Dec., 2024 Research BIB / Index Copernicus www.oriens.uz
2. М.Джураев "Kichik biznes va tadbirkorlik asoslari". – Ташкент: Экономика, 2019.
3. Н.Абдуллаев, А.То'хтайев "Тadbirkorlik faoliyati va kichik biznesni rivojlantirish". – Toshkent: Fan va texnologiya, 2020.
4. В.Хо'jayев "O'zbekiston iqtisodiyotida xususiy sektorning o'rni". – Toshkent: Universitet, 2021.
5. Ш.Н.Ахунова, И.Ш.Толибов, (2019). К проблеме повышения эффективности привлечения инвестиций в экономику Узбекистана. Достижения науки и образования, (7 (48)), 2019, 18-22.
6. Тешабоев, А.М., & Рубидинов, Ш.Ф.У. (2022). Вакумное и онноплазменное покрытие деталей и анализ изменения поверхностных слоев. Scientific progress, 3(2), 286-292.
7. N.R.Khujakulova "Ways to improve the current state of cultivation and processing of medicinal plants and its importance" - Gwalior management academy-2022
8. Рубидинов, Ш.Ф.У., Файратов, Ж.Ф.У., & Ахмедов, У.А.У. (2022). Материалы, способные уменьшить коэффициент трения других материалов. Scientific progress, 3(2), 1043-1048.
9. Yulchieva, S. B., Olimov, A., Yunusov, M. (2022). Gas Thermal and Galvanic Coatings on the Surface of Parts. International Journal of Innovative Analyses and Emerging Technology, 2(2), 26-30.



INNOVATION
IQTISODIYOT
ILMIY-AMALIY ELEKTRON
JURNAL

ISSN: 3030-315X



t.me/kstu_uz



Qarshi shahri,
Mustaqillik ko'chasi 225



www.kstu.uz
www.ojs.kstu.uz